

## O‘ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA YURAK KONSEPTINING IFODALANISHI

**Muzaffarova Mohisitora Jahongir qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlar tillari va madaniyati instituti

4-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va qozoq tilshunosligining rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiyaning asosiy birligi – konsept tushunchasi tadqiq etilgan. Maqolada kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya haqida, konseptning nazariy asoslari, uning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi va lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, “yurak” konseptining o‘zbek va qozoq tillarida ishlatilishi misollar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, qozoq tili, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, tushuncha, “yurak” konsepti.

**Annotation.** The article is devoted to the study of the concept as a fundamental unit of cognitive linguistics and linguoculturology, which are developing areas in Uzbek and Kazakh linguistics. The theoretical foundations of cognitive linguistics and linguoculturology are outlined, and the issues related to the study of the concept in world and Uzbek linguistics are considered. Particular attention is paid to the linguocultural features of the concept. The usage of the “heart” concept in Uzbek and Kazakh languages is analyzed on the basis of examples.

**Keywords:** uzbek language, kazakh language, cognitive linguistics, linguoculturology, concept, notion, “heart” concept.

**Аннотация.** Статья посвящена изучению концепта как основной единицы когнитивной лингвистики и лингвокультурологии, являющихся развивающимися направлениями в узбекском и казахском языкознании. В работе рассматриваются теоретические основы когнитивной лингвистики и лингвокультурологии, а также вопросы изучения концепта в мировой и узбекской лингвистике. Особое внимание уделяется лингвокультурным особенностям концепта. Использование концепта «сердце» в узбекском и казахском языках анализируется на основе примеров.

**Ключевые слова:** узбекский язык, казахский язык, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концепт, понятие, концепт «сердце».

So‘nggi yillarda kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi lingvistik tadqiqotlarda konsept masalasining dolzarblashishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki kognitiv yondashuv asosida ilmiy tadqiqotchi aynan til orqali inson ongini anglashga erishadi. Kognitiv tilshunoslik - inson ongi, tafakkuri va uning mental jarayon va holatlarini birgalikda o‘rganuvchi alohida ilmiy soha hisoblanadi. U inson hayoti davomida olamni anglash jarayonlari haqidagi fandır.

XX asrning so‘nggi choragida paydo bo‘lgan ushbu soha XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff kabi namoyondalarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘lanadi. Kognitologiya, falsafa, kognitiv psixologiya, psixolingvistika, lingvistika kabi sohalar to‘qnashuvida kognitiv tilshunoslik vujudga kelgan. Kognitiv so‘zining ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, inglizcha “cognize” so‘zidan olingan bo‘lib, “bilmoq”, “anglamoq”, “tushunmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu termin ilmiy jihatdan juda keng va chuqur tushuncha bo‘lib, u insonning bilish (anglash) tizimi bilan bog‘liq barcha jarayonlarni ifodalaydi. Tilshunoslikning bu yo‘nalishi tilni insonning ongi (tafakkuri), bilish jarayonlari va dunyoni idrok etishi bilan bog‘lab o‘rganadi.

Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritarkan, shunday deb yozadi: “Kognitiv fan kognisiya bilan shug‘ullansa, kognitiv

tilshunoslik kognisiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi.”

Tilshunos olim Sh.Safarovning fikriga ko'ra , “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri hamda o'rganish obyekti – bu konseptdir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga “Bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir”, deb izoh bergan. Shunga qaramasdan, XX asrning 70-yillarida ushbu atamaga to'liq izoh berilmagani muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasining tilshunoslar istemoliga kirishi 80-yillarda yuqorida keltirilgan ingliz olimlarining asarlari bilan uzviy bog'liqdir. Ularning asarlarida konseptualizatsiya, konseptual mohiyat kabi konsept bilan bog'liq atamalar uchraydi.

Konsept so'zining lug'aviy ma'nosi haqida ko'pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko'ra, konseptni mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor.

Konsept — lotincha ildizga ega bo'lib, “ongda shakllangan tasavvur yoki anglangan tushuncha” degan ma'noni bildiradi. Ya'ni “conceptus” so'zi “tushuncha” ma'nosini anglatadi. Kognitiv atamalar lug'atiga e'tibor bersak, konsept atamasiga quyidagicha ta'rif berilganini ko'ramiz: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. Kundalik ilmiy ijodda esa bu atama “tushuncha” so'zi bilan sinonim sifatida qo'llanilishini ham ko'ramiz. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, konsept termini tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin.

Tilshunos olimlar konsept tushunchasini turlicha talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir-biriga juda yaqindir, ular konseptni “mantiqiy kategoriya” sifatida talqin etishadi. Ya’ni Askoldovning fikricha “konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi”. Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept so‘zining ma’nosiga ko‘p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o‘ylanadigan, balki ular o‘zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnotatsiyani o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi va konsept tuzilishida boshqacha nuqtai nazar borligini ta’kidlaydi. Konsept markazida qadriyat hamda madaniyat yotishini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov konsept haqida shunday deydi: “Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet- hodisalar haqida tushunchaning tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna- konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi”dir.<sup>1</sup>

O‘.Q.Yusupov konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir”, deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi:” Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”.<sup>2</sup>

O‘zbek tilshunos olimlaridan biri N. Mahmudov o‘zining “Til tizimi tadqiqi” nomli risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” mavzusidagi maqolasida “...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo‘lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir”, deb yozadi.

---

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91

2. Yusupov O‘.Q-Ma’no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamaları xususida// Stilistika tilshunoslikning

zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-  
49-bet

Yana bir olimimiz T. Mardiyevning fikriga ko'ra, konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega.<sup>3</sup> Haqiqatdan ham konsept tushunchasi xalqning madaniyati va qadriyatlarida o'z aksini topadi. Ushbu maqolamizda o'zbek va qozoq tillaridagi "yurak" konseptining o'ziga xos badiiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Quyidagi sxema asosida o'zbek tilidagi "yurak" konseptining ma'nolarini ko'rishimiz mumkin.



---

3. Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (Илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016, №10. – Б.36-44.

1. Anatomik organ. Odam va hayvonlar ko‘krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o‘xshagan markaziy a‘zo. Masalan: sog‘lom yurak, yurakning urushi, yurak kasalligi, yurak klapani kabi. Kumushning harorati kuchli, **yurak** urishi favqulodda tez edi. (A. Qodiriy, “O‘tkan kunlar”)

2. Ko‘chma ma’noda. Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, ko‘ngil, dil. Masalan: dil izhori, toza qalb, oshiq ko‘ngil kabi.

Bir ko‘rinib yag‘mo qilg‘an **ko‘nglimni**,

Qaytib yana ko‘ralmadim norimni! (A. Qodiriy, “O‘tkan kunlar”)

3. Ko‘chma ma’noda. Biror narsaning asosi, markazi. Masalan: mamlakatning yuragi, shaharning yuragi kabi. Ha, ular Toshkent temir yo‘l ustaxonasi Turkistonda qo‘zg‘olonning **yuragi** ekanini tushunadilar. (N. Safarov, “Sharq tongi”)

4. Qo‘rqmaslik, jasorat va shu kabilarning shakliy ramzi. Misol uchun, yuragi katta, dovyurak kabi. Men uning O‘tapboy qushbegiga qilgan muomalasini eshitib, yuragiga balli, degan edim. (A. Qodiriy, “O‘tkan kunlar”)

5. So‘zlashuv tilida qorin, oshqozon ma’nolarini anglatadi. Misol: Uning yuragi g‘ijimlab og‘riyapti.

6. Ramziy ma’noda yurak sevgi-muhabbat timsoli hisoblanadi. Yozgan so‘zlarini oxiriga yurak rasmini chizdi va xatni yakunladi.

Qozoq tilidagi “жүрек” konsepti o‘zbek tilidagidek, avvalo, biologik tushuncha sifatida qaraladi. U qon aylanish tizimining markaziy organi bo‘lib, organizm hayotiy faoliyatini ta’minlaydi. Yurakning ana shu hayotiy ahamiyati uning konseptual darajada kengayishiga asos bo‘lgan. Keyingi ma’nolariga o‘tadigan bo‘lsak, his-tuyg‘ular markazi (sevgi, quvonch, qo‘rquv, iztirob), ruhiy holatini ko‘rsatuvchi omil, sezgi hamda insonning fe‘l-atvorini ifodalab keladi. “Yurak” konseptining semantik maydoni o‘zbek tilidagidek kengdir. Qozoq adabiyotida “жүрек” quyidagi ma’nolarni oladi:

a) Axloqiy markaz

qalb, ko'ngil

halollik

insoniylik

jasorat

b) Ruhiy og'riq

sog'inch

ayriliq

dard

c) Sevgi va muhabbat

romantik tuyg'ular

sadoqat va vafodorlik

Qozoq tilida ham “yurak” insonning his-tuyg'ulari markazi – ko'ngilni ifodalab keladi. Masalan, “Тіл жүректің тілмашы” maqolida yurak so'zi qalb, ko'ngil ma'nolarini ifodalab kelgan. “Ерлік білекте емес -жүректе”, “Батырлық білекте емес, жүректе” ushbu maqollarimizda esa qo'rqmaslik, dovyuraklik, botirlik va jasorat kabi ma'nolarni anglatgan. “Ақ жүрек” iborasini qozoq xalqi halol, adolatli, vijdonli va insonparvar insonlarga nisbatan qo'llashadi. “Жанған жүрек”- qozoqcha ibora bo'lib, o'zbekchada “yonayotgan yurak” degan ma'noni beradi. Lekin bu to'g'ridan-to'g'ri emas, ko'chma (badiiy) ma'noda ishlatiladi. Ibora oddiy yurak ma'nosini emas, balki ayriliq, sog'inch va dardga to'lgan oshiqning yuragi ramziy ma'noda ifodalab keladi. “Екі жүрек бірлесті” iborasi ikki inson (yurak) sevgi-muhabbat asosida birlashganini hamda sevgi asosida sadoqat va vafo kabi nozik ma'nolarning ham ifodalanishini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har ikki tilda ham yurak - inson organizmining markaziy organi hisoblanadi. U nafaqat qon aylanish markazi, balki hayotning manbai sifatida qabul qilinadi. O‘zbek va qozoq tillarida “yurak/жүрек” konsepti “insonning ma’naviy-hissiy markazi” sifatida birlashadi. Farq shundaki, o‘zbek tili yurakning refleksiv (ichki kechinmalar) jihatiga ko‘proq urg‘u bersa, qozoq tili uning faol (shijoat va harakat) jihatini biroz ko‘proq bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ikkala tilda ham bu konsept shunchaki a‘zo emas, balki insonning «men»i, uning ichki olami va ijtimoiy qiyofasini belgilovchi oliy tushunchadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анар Салқынбай. Шаһкәрім шыққан шың. Монография. - Алматы, 2011. 198-210-стр.
2. Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (Илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016, №10. – Б.36-44.
3. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax: Sangzor,2006.- B.91.
4. Yusupov O'.Q-Ma'no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent,2011.-49-bet.
5. <https://qazcorpus.kz>